da moslashuvchanligi va ijodkorligidir. Kompetentlik o‘qituvchining sharoitga tez moslashishi, ta’lim jarayoniga yangiliklar kiritishi va samaradorligini oshirishga qaratilgan xususiyatlar majmuasidan iborat bo‘lib, kasbiy faollik va ijodiy yondashuv bilan o‘z ifodasini topadi [3;137-b.].

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari nafaqat dars jarayonlarini tashkil etuvchi mutaxassislar, balki pedagogik ijodkorlikka ega bo‘lgan, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim. Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyasi kompetentlilik yondashuvi asosida ko‘rib chiqiladi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodikasi quyidagi asosiy yondashuv va usullarga asoslanadi:

1. Kompetentlilik yondashuvi – bu metodika kasbiy bilim va ko‘nikmalarni nazariy va amaliy jihatdan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. O‘quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki kasbiy faoliyatga tayyorlash ham muhim hisoblanadi.

2. Interfaol o‘qitish metodlari – interfaol ta’lim usullari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni yechish qobiliyati hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

–munozaralar va bahs-munozaralar talabalarni o‘z fikrlarini asoslash va dalillar bilan mustahkamlashga o‘rgatadi;

–rolli o‘yinlar va modellashtirish haqiqiy kasbiy vaziyatlarni yaratish orqali amaliy bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi;

–loyiha usuli talabalar mustaqil yoki jamoaviy loyihalar ustida ishlash orqali tajribalarini oshiradilar.

3. Innovatsion ta’lim texnologiyalari bu zamonaviy pedagogik yondashuvlar va vositalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar majmuasidir. Ushbu texnologiyalar an’anaviy ta’lim usullaridan farqli ravishda interfaollik, individual yondashuv va ilg‘or texnologik imkoniyatlardan keng foydalanish bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni alohida qayd etish lozimki, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish ta ‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Kompetentlilik yondashuvi asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga, balki o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol va samarali ishtirok etishiga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Kenjaboyev.A.E. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. O‘quv qo‘llanma, TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti, 2022, 280-bet.

(2). Shodmonova Sh.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amalivoti. T., «Fan va texnologiya», 2019, 296-bet.

(3). Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., «Просвещение», 1995, 336 с.

(4). Маркова А.К. Психология профессионализма. М., “Знание”, 1996, 308 с.

Bakirov To‘lqinjon Yunusaliyevich (Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent; Bakirov_t75@mail.ru; ORCID ID 0000-0001-9848-9542),
Mamatqulov Ravshanjon Ma’murjonovich; Mamatqulovravshanbek7@gmail.com)

TA’LIMDA VA TURLI XIL SOHALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’limda texnologiyani ko‘rib chiqamiz, u qanday qilib har bir kishi uchun yangi ta’lim imkoniyatlarini taqdim etishini va bolalar kelajak iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan raqamli ko‘nikmalarni o‘rganishlari kerakligini tushuntiradi.*

Kalit so‘zlar: *MOOC, LMS, ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, interaktiv ta’lim, STEM ta’limi, sinflarda interaktiv doskalar, o‘quvchilarga texnologiya asosida individual ta’lim berish, multimediali o‘quv materiallari, audio, video, animatsiya, dastur.*

ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ И РАЗЛИЧНЫХ СФЕРАХ

Аннотация. *В этой статье мы рассмотрим технологии в образовании: как они предоставляют новые возможности обучения для каждого и как детям необходимо овладевать цифровыми навыками, необходимыми им для экономики будущего.*

Ключевые слова: *MOOC, LMS, образовательные технологии, цифровое образование, интерактивное образование, STEM-образование, интерактивные доски в аудиториях, индивидуальное обучение студентов на основе технологий, мультимедийные учебные материалы, аудио, видео, анимация, программа.*

INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND VARIOUS FIELDS

Annotation. *This article looks at technology in education – how it opens up new learning opportunities for everyone and explains why children need to learn the digital skills they need for the economy of the future.*

Keywords: *MOOC, LMS, Educational technologies, Digital education, Interactive education, STEM education, Interactive whiteboards in classrooms, Technology-based individualized education for students, Multimedia educational materials, audio, video, animation, software.*

Kirish (Introduction). Texnologiyaning tez rivojlanishi inson hayotining ko'plab sohalarida, jumladan, ta'lim sohasida ham sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ushbu maqola texnologiyaning ta'limdagi muhim rolini, shuningdek, uning o'quv maqsadlari va 21-asrning muhim ko'nikmalarini egallashga qanday ta'sir qilishini o'rganadi va ta'lim muhitida texnologiyaning integratsiyasi an'anaviy o'qitish amaliyotlarini qanday o'zgartirganini va o'quvchilarni raqamli ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun qanday matevatsiya berishiga qaratilgan [2;4-b.].

Mamlakatizmizda ta'lim sohasini rivojlantrish maqsadida turli xil texnologiyalar, kompyuterlar, aqlli doskalar, turli raqamli platformalar va boshqa texnologik qurilmalar ta'lim jarayonining bir qismi sifatida foydalanilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayonini sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Ta'lim, axborot va texnologiyalar bir-biri bilan uyg'unlashib, zamonaviy ta'lim tizimining asosini tashkil etadi. Texnologiyalar yordamida o'quv jarayoni yanada innovatsion va samarali qilib tashkillash darslarga bo'lgan qiziqishni oshirishga kata xissa qo'shib kelmoqda, bu esa o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha qiziqishlarini oshirib kelmoqda. Ta'lim jarayonida kompyuterlar o'qituvchi va o'quvchilarga keng imkoniyatlar beradi, masalan, turli xil ma'lumotlarni kiritish, maqolalar yozish, mulohaza va interaktiv dasturlardan samarali foydalanish uchun xizmat qilib kelmoqda. Interaktiv o'quv materiallari o'quvchilarning o'zaro aloqasini kuchaytiradi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. O'quvchilar yangi texnologiyalar mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib, bilim olish jarayonida faol ishtirok etadilar. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim muhitini yaxshilash o'quvchilarning ta'limga qarashlarini o'zgartirishi va ularni o'rganishga rag'batlantirishi mumkin [11;15-b.].

Ta'limda zamonaviy texnologiyalarni internetsiz tassavur qilish qiyin, internet ta'lim resurslariga kirishni osonlashtirib, yangi ma'lumotlarni tezda olish imkoniyatini beradi, bu esa o'quv jarayonida o'quvchilarni bilimlarini yanada kuchayishiga katta hissa qo'shadi.

Bugungi kunda ta'imda elektron ta'lim platformalarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. MOOC va LMS kabi platformalar ta'lim jarayonini onlayin o'sishini va o'rganish jarayonlarini optimallashtiradi, shuningdek, o'quvchilarni bir joyda markazlashtiradi. Yangi texnologiyalarni ta'limga qo'shish innovatsion yondashuvlarni yaratadi, bu esa o'quv jarayonini kuchaytrib o'qitish metodologiyalarini rivojlantiradi [17;22-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'qituvchilar uchun texnologik yondoshuvlar mustaqil, innovatsion ta'lim natijalarini rag'batlantiradi va pedagogik faoliyatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

O'qtuvchilar zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitish jarayoni samarali va tezroq o'tadi, chunki onlayin platformalarda resurslar va materiallar o'z vaqtida taqdim etiladi. O'quvchilar ham zamonaviy texnologiyalardan o'z ehtiyojlari va qobiliyatlariga ko'ra, o'quv materiallariga qidirish va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Zamonaviy texnologiyalar o'quv jarayonini istalgan joyda va istalgan vaqtda amalga oshirish imkoniyatini beradi va ta'lim jarayonini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'qituvchilar va o'quvchilar ko'p vaqtni foydali jarayonlarga sarflashlari mumkin, bu esa samaradorlikni oshiradi. O'qituvchilar va o'quvchilar uchun turli ta'lim resurslari mavjud bo'lib, bu texnologiyalarga kirishni osonlashtiradi. Ta'lim tizimlariga texnologiyalarni integratsiyalash butun jarayonni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). MOOC: Katta ochiq onlayn kurslar (MOOC) turli yo'nalishlarda keng imkoniyatlar yaratib, ta'limni har kim uchun ochiq qiladi.

LMS: o'quv jarayonini boshqarish tizimlari (Learning Management Systems, LMS) ta'lim resurslarini boshqarishga, ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning malakasini baholashga imkon beradi. Ta'-

limga doir platformalari o‘zaro muloqotni kuchaytiradi va ko‘plab imkoniyatlar yaratadi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ommaviy tarizda xizmat ko‘rsatishga yordam beradi. Onlayn darslar o‘quvchilarga masofadan turib o‘qish imkonini beradi hamda o‘qituvchilar bilan qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Ta’limni boshqarish tizimi (Learning Management Systems, LMS) ta’lim xizmatlarini taqdim etishni o‘z ichiga olgan tizimdir. Dastlab, bu tizimdan faqat o‘quv markazlari, oliy ta`lim muassasalari tomonidan foydalanilgan bo‘lsa, hozirga kelib yirik kompaniyalar undan foydalanishni boshladilar. Hozirgi tendentsiya masofadan o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, bu LMS tobora ko‘proq qo‘llanilishida aks etadi. Shunday qilib, ushbu tizimning rivojlanishi kompaniyalarga o‘z xodimlari uchun malaka oshirish platformasini joriy qilish imkonini beradi. LMSning asosiy vazifasi mavjud bilimlarni boshqarishdan iborat. Hozirgi kunda o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va sifatli kadrlarni tayyorlash uchun LMS tizimlarini yaratish nafaqat elektron ta’limning dasturiy platformasini ishlab chiqish, balki elektron ta’lim jarayonini boshqarish va bilim olish, axborot olish uchun samarali muhitni yaratishdir. Shu sababli zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, keng qamrovli LMS tizimlarini yaratish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlar, maktab o‘quvchilar va talabalar, kurs ishtirokchilari va o‘quv mashg‘ulotlarini amalga oshirishdagi eng muhim bosqich elektron ta’limni boshqarish tizimini ishlab chiqishdir [20;25-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi kunda aloqa va ma’lumot olish nternet va gadjetlar orqali tobora ko‘proq amalga oshirilmoqda. Elektron ta’lim bu zamonaviy multimedia va kommunikatsiya texnologiyalarining har qanday yutuqlaridan foydalangan holda o‘rganishdir. Axborot rivojlangan jamiyatlarda ta’limning boshqa elektron bo‘lmagan shakllari qolmagan: axir, agar zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonining, hech bo‘lmaganda, ba’zi jihatlarida, hatto elektron pochta, mobil telefon yoki ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etsa, bu allaqachon juda samarasiz shaklda elektron ta’lim imkoniyatlarining o‘z o‘zidan rivojlanishiga misoldir.

•**Kelajak istiqbollari.** Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kelajakda ta’lim sohasini yanada tubdan o‘zgartirishga qodir.

•**Rivojlanish.** Zamonaviy texnologiyalar ta’lim sohasida rivojlanishni davom ettirishga va yangi yondashuvlar ushbu jarayonni yanada yaxshilashga yordam beradi.

•**Muammolar.** Texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq muammolar, axborot xavfsizligi, o‘quvchilarning o‘zaro aloqasini zararli holatlarda saqlash doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Akhmedov, B.A., Majidov, J.M., Narimbetova, Z.A., Kuralov, Y.A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), p. 805–808.

(2). Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Т., 2019 (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ5847-фармонига илова).

(3). Jahon Banki ta’lim islohotlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 21-may 2018-yil kun.uz

(4). UNESCO – Ta’limda AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) 29-noyabr, 2024.

(5). Ta’lim komissiyasining hisoboti (2016).

(6). Global ta’limni kuzatish hisoboti (UNESCO) 20-may 2024-yil.

(7). Global Learning XPRIZE havola

(8). Theirworld – Code Clubs va Kano Loyihasi havola

(9). O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi havola

(10). https://www.ziyonet.uz

Madaminov Azimbek Egamberganovich (Urganch davlat Pedagogika instituti dotsenti)

JISMONIY MADANIYAT TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH PARAMETRLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borishlarining parametrlari haqida fikrlar bayon etiligan bo‘lib, unda jismoniy madaniyat ta’limi yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalarining ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlarda ilmiy tadqiqot ishlarning dastlabki bosqichlari haqida bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, talaba, pedagogik, ta’lim, tizim, ilmiy faoliyat, xorijiy tajriba, kasb, jarayon, mexanizm.*